

Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026- yil yanvar oyi uchun


- I.* Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II.* Toshkent viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III.* Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV.* Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V.* Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1- fevral holatiga ko'ra viloyatda 7031 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 445 tasi (*faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soning 6,4 foizi*) Chirchiq shahriga, 369 tasi (5,2 %) Yangiyo'l shahriga, 1004 tasi (14,2 %) Zangiota tumaniga, 604 tasi (8,7 %) Qibray tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- fevral holatiga ko'ra





II. Toshkent viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 12 179,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,8 % ni tashkil etdi.


	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent viloyati	12 179,9	106,8
Nurafshon sh.	404,4	120,5
Olmaliq sh.	4 721,3	110,3
Angren sh.	660,6	108,7
Bekobod sh.	528,9	102,3
Ohangaron sh.	389,8	107,5
Chirchiq sh.	1 053,9	118,6
Yangiyo'l sh.	74,5	108,6
Oqqo'rg'on	47,4	116,3
Ohangaron	872,9	104,2
Bekobod	42,5	156,4
Bo'stonliq	160,7	94,1
Bo'ka	32,0	132,3
Quyi Chirchiq	83,6	109,2
Zangiota	245,0	105,6
Yuqori Chirchiq	289,7	130,1
Qibray	849,2	107,1
Parkent	57,4	94,3
Pskent	269,8	114,1
O'rta Chirchiq	179,3	115,4
Chinoz	89,7	128,7
Yangiyo'l	234,8	108,9
Toshkent	257,5	107,2

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Olmaliq shahrida (31 266,6 ming so'm), Ohangaron shahrida (9 128,2 ming so'm), Ohangaron tumanida (7 616,8 ming so'm), Qibray tumanida (4 673,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 853,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Nurafshon shahrida (108,0 %), Ohangaron shahrida (107,5 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar oyida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri kelib, 10 190,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,7 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 488,2 mlrd so'm (4,0 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 442,7 mlrd so'm (11,8 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 58,8 mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
C - Ishlab chiqarish sanoati
D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



**III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2026- yilning yanvar oyida viloyatda 9 588,6 ming tonna shakar,(45,9 % ga kamaygan), 2 023,1 ming litr pivo mahsulotlari (1,5 % ga ko'paygan), 188,2 ming tonna portlandsement (20,4 % ga kamaygan) hamda 15 397,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (43,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	2026- yil yanvar
Yumshoq bug'doy spelta uni, ming t	12,9	10,7	15,4
Shakar, ming t	14,3	20,9	9,6
Portlandsement, ming t	220,3	233,3	188,2

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,5 % (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,3 % (2025- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,6 % ni (2025- yilning yanvar oyida 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 4,9 % (4,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 51,2 % (50,4 %), quyi texnologiyali 23,1 % (20,3 %) ni tashkil etgan.





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 92,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 93,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	2026- yil yanvar
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kv.t.s	1913,7	1862,9	1880,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	358,3	369,9	377,6


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 28,9 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 10,8 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 6,1 % ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar	2025- yil yanvar	2026- yil yanvar
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	6,9	6,1	6,3
Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar- mlrd so'm	1,5	1,1	1,2

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 167,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,8 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar oyida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15,9 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.



Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://Toshvil.stat.uz>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

S.Zoyirboyev
(4512)

Manzil: Toshkent shahar, Mirobod tumani, Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-uy
